

2019 yil yanvar-
iyun

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2019 yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar

Joriy davrda 4765,9 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 65,7 %i yoki 3039,6 mlrd. so'm jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korhona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan 34,3 %i yoki 1636,3 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 187,6 foizni tashkil etdi

Markazlashtirilgan
mablag'lar
hisobiga: 3039,6
mlrd.so'm

O'z mablag'lari
hisobidan:
1636,3 mlrd.
so'm

Asosiy kapitalga
kiritilgan
investitsiyalar
hajmi 4765,9
mlrd. So'mni
tashkil etdi

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Hisobot davrida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 1690,6 mlrd. investitsion mablag' yoki jami investitsiyalarning 35,5% ni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davriga qaraganda deyarli 5,9 marta ko'pdir. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 3075,3 mlrd. so'm o'zlashtirildi va 2018 yil yanvar iyuniga nisbatan 47,1% ga oshdi.

Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga 985,4 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar jalb qilindi yoki jami investitsiyalarning 20,7 foizi o'zlashtirildi. Aholining mablag'lari hisobidan 650,9 milliard so'm investitsiyalar, yoki 13,6 foiz investitsiyalar o'zlashtirildi.

Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 834,9 mlrd. so'mlik xorijiy kreditlar ajratildi bu esa 2018-yil yanvar-iyunga nisbatan 19,9 marta ko'pdir yoki jami investitsiyalarning 17,6% ini tashkil etadi.

Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 289,6 mlrd. so'mni tashkil etdi (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 6,1% ni tashkil etdi), bu o'tgan yilga nisbatan, 41,5 foiz punktga oshdi, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 1149,4 mlrd (24,1% va 3,0 martaga ga o'tgan yilning shu davriga nisbatan kopaygan), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan – 220,0 mlrd. so'm (4,6% va 126,9 foizga oshgan), Respublika byudjetidan – 587,1 mlrd. so'm (12,3% va 9,0% ga oshgan), Suv taminoti tizimini rivojlantirish jamgarmasidan-33,9 mlrd. so'm (0,7% va 13,5 martaga oshgan) va Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasidan – 14,7 mlrd. so'mni yoki asosiy vositalar bo'yicha jami investitsiyalarning 0,3% ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan

Respublika byudjeti - 587,1 mlrd. so'mni;

Suv ta'minoti tizimini rivojlantirish jamg'armasi - 33,9 mlrd.

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi - 14,7 mlrd.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi - 220,0 mlrd. so'm;

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlari - 834,9 mlrd.

Markazsizlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan

Korxonalar, shu jumladan mahalliy byudjet mablag'lari - 985,4 mlrd. so'm;

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari - 289,6 mlrd. so'm;


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar - 1149,4 mlrd.

Aholi mablag'lari - 650,9 mlrd. so'm;

Asosiy kapitalga investitsiyalar


Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

(jami hajmdagi ulushi, % da)



Asosiy kapitalga investitsiyalar

Mulkchilik shakllari bo`yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning ulushi (foizda)



Hisobot davrida asosiy kapitalga nodavlat mulki asosida kiritilgan investitsiyalar hajmi o'tgan yilga nisbatan 6,0 foizga kamaydi.

	mlrd. so'm	O'sish sur'ati %	Umumiy hajmga nisbatan % da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan:	4765,9	187,6	100,0
Respublika byudjeti	587,1	899,0	12,3
Suv ta`minoti tizimini rivojlantirish jamg`armasi	33,9	13,5m	0,7
Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi	14,7	-	0,3
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	220,0	126,9	4,6
O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari	834,9	19,8	17,6
Korxonalar mablag'lari	985,4	111,2	20,7
Tijorat banklaridan kreditlar va boshqalar qarzi mablag'lari	289,6	58,5	6,1
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	1149,4	300,2	24,1
Aholi mablag'lari	650,9	192,0	13,6

Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar bo'yicha - o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,8 martaga, shuningdek Tiklanish va rivojlantirish jamg'armasiga 11, 6 martaga oshgan. Bu Taxiato'sh issiqlik elektr stansiyasida yirik investitsion loyiha - har biri 230-280 MVt quvvatga ega ikkita gaz-bu'lovchi uskunalarning qurilishi bilan bog'liq. Bu yirik loyihaning qurilishi 2017-yil oktyabr oyidan boshlanib, tugatilish jarayoni 2022 yilgacha belgilangan. Hisobot davriga 928,6 mlrd.so`m o`zlashtirilib,shundan O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari-722,5 mlrd.so`m, tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan esa -201,4 mlrd so`m ajratilgan.

Tumanlar kesimida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (mlrd. so'm)

	Investitsiya asosiy kapital mlrd. so'mni tashkil etdi	shu jumladan tumanlar tomonidan:							
		Respublika byudjeti	Korxonalar va tashkilotlar mablag'lari	Aholi mablag'lari	Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	Suv taminoti tizimini rivojlantirish jamg'armasi	Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	Qayta qurish va rivojlantirish jamg'armasi	Tijorat banklaridan kreditlar va boshqa qarz mablag'lari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4765,9	587,1	985,4	650,9	1984,3	33,8	14,8	220,0	289,6
shu jumladan:									
Amudaryo	88,7	10,6	22,4	36,7	8,2	0,6	-	-	10,2
Beruniy	560,4	12,0	8,2	108,9	420,3	3,0	-	-	8,0
Qorao'zak	194,9	12,5	100,7	17,2	30,1	1,1	-	-	43,0
Kegeyli	47,4	11,3	7,7	7,7	2,6	2,1	-	-	6,5
Qo'ng'irod	453,9	19,0	163,7	27,1	228,0	0,1	-	-	16,0
Qonliko'l	72,2	14,5	22,4	14,4	10,3	4,1	-	-	6,5
Mo'ynoq	532,6	14,1	433,8	29,6	20,8	3,5	14,8	-	16,0
Nukus tumani	157,7	23,3	5,4	66,4	49,6	0,3	-	-	12,7
Taxiatosh	992,0	8,2	11,4	10,2	743,0	1,5	-	201,5	16,2
Taxtakopir	42,2	7,4	2,5	25,9	1,8	1,5	-	-	3,1
To'rtko'l	313,6	218,2	10,5	63,7	10,1	1,8	-	-	9,3
Xo'jayli	200,5	10,3	11,4	118,1	50,8	3,7	-	-	6,2
Chimboy	128,5	14,6	9,1	12,1	87,3	2,5	-	-	2,9
Shumanoy	37,7	11,4	6,6	7,4	0,4	2,9	-	-	9,0
Ellikqal'a	248,4	21,1	11,6	41,2	143,6	0,5	-	-	30,4
Nukus shahri	695,2	178,6	158,0	64,5	177,4	4,6	-	18,5	93,6

Asosiy kapitalga investitsiyalar


Tumanlar va shaharlar nomlari	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi, milliard so'mda	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4765,9	187,6
Amudaryo	88,7	116,8
Beruniy	560,4	245,0
Qoraov'zak	194,9	105,1
Kegeyli	47,4	100,9
Qo'ng'irod	453,9	100,3
Qonliko'l	72,2	190,5
Mo'ynoq	532,6	244,5
Nukus tumani	157,7	327,6
Taxiatosh	992,0	300,3
Taxtak'o'pir	42,2	109,0
To'rtko'l	313,6	599,5
Xo'jayli	200,5	537,8
Chimboy	128,5	285,7
Shumanoy	37,7	123,3
Ellikqal'a	248,4	245,1
Nukus shahri	695,2	113,0

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yo`qori o'sish sur'atlari Taxiatosh tumanida kuzatildi - o'tgan yilning shu davriga nisbatan 48,3 martaga ko'p. Bu Taxiatah issiqlik elektr stansiyasida ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish bo'yicha yirik loyihani amalga oshirishga bog'liq. To'rtko'l tumanida ushbu ko'rsatkich 3,0 barobar oshdi, bu quvvatligi 2,1 mlrd.kub.metr bolgan suv saqlagich qurilishi bilan bog'liq va shuningdek ijtimoiy ob'ektlarni qurish va rekonstruksiyalash hisobiga, bundan tashqari, Chimboy tumanida yo`qori o'sish sur'atlari kuzatildi – 285,7 foiz, bu esa hududda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan yangi to'qimachilik korxonalarini barpo etish bilan bog'liq. Xo`jayli tumanida ham yo`qori o`shish sur`ati kuzatildi (537,8 %) bu esa tog`ridan-tog`ri chet el investitsiya va kreditlari hisobidan porloq va ofset qog'oz ishlab chiqarish shuningdek, qizilmiya ildizlarini qayta ishlash va issiqxona inshootlarini o'rnatish ishlari hisobiga, Beruniy tumanidagi o'sish sur'ati 245,0 foizni tashkil etdi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga yangi sement ishlab chiqarish uchun moljallangan zavod qurilishi bilan bog'liq.

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi
(ulushi,% da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik



Qurilish-montaj ishlari:
49,1%




Mashina, uskunalar,
inventarizatsiya:
49,0%



Boshqalar:
1,9%


Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari uchun 2337,7 mlrd. so'm ajratildi, bu asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 49,1% ini tashkil etdi, mashina, asbob-uskuna va inventarlarni harid qilish uchun yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 2335,9 mlrd. so'mni tashkil etdi (asosiy kapitalga umumiy investitsiyalardagi ulushi 49,0%) va boshqa xarajatlar – 92,2 mlrd. so'mni (1,9%).

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Texnologik tarkibi bo'yicha hisobot davrida qurilish-montaj ishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar o'tgan yilga nisbatan 7,1 foizga kamaydi, mashina va uskunalar sotib olish uchun 20,3 foizga oshdi, boshqa xarajatlarga yo'naltirilgan investitsiyalar 13,2 foizga kamaydi.


Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Hisobot davrida asosiy fondlarga kiritilgan investitsiyalarning ko'p qismi mavjud ob'ektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va texnik jihatdan qayta jihozlashga qaratilgan bo'lib, 3709,3 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 77,8% ni tashkil etdi. Yangi qurilishga kiritilgan investitsiyalar hajmi 623,4 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu 13,1% ni, qolgan 9,1% yoki 623,1 mlrd. so'mni boshqa sohalarga yo'naltirildi

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Joriy yil boshidan kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va texnik qayta qurollantirish bo'yicha investitsiyalar o'tgan yilga nisbatan 0,9 foiz ko'pdir. Yangi qurilishda investitsiyalar hajmi 13,8 foizga, boshqa sohalarda esa 2018 yil yanvar-iyungacha nisbatan 13,0 foizga kamaydi.



O`rmon, baliqchilik va qishloq xo`jaligi

12,9



Tog`-kon sanoati

13,5




Qayta ishlash sanoati

23,0



Elaktr ta`minoti, gaz etkazib berish va bug`langan havo

19,7



Suv ta`minoti va kanalizatsiya

2,1



Qurilish

2,3



Tashish va saqlash

3,0



Ta`lim

2,7



Uy joy qurilishi

14,2



Boshqa yo`nalishlar

6,6


Hisobot davrida elektr energiyasi va gaz ta'minoti 937,9 mlrd. so'mga yoki umumiy investitsiyalar hajmining 19,7 foiziga to'g'ri keldi. Bu Taxiatosh tumanidagi elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi Taxiatosh TES ning yangi yirik 2 blok qurilishi bilan bog`liq.

Qayta ishlash sanoatiga o`zlashtirilgan chet el investitsiyalari hisobidan boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarilishiga 567,5 mlrd.so`m, dorivor mahsulotlar ishlab chiqarilishiga 180,6 mlrd.so`m, kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarilishiga 118,9 mlrd.so`m sarflandi.

Tog'-kon sanoati tarmog'ida 645,1mlrd.so'm yoki umumiy investitsiyalarning 13,5% o'zlashtirilib, shundan 588,2 mlrd.so'm yoki jami investitsiyalarning 12,3% tabiiy gazni qazib olishga (yangi gaz quduqlarini qurish)o`zlashtirildi.


Bundan tashqari ta`lim sohasiga 130,3 mlrd.so`m o`zlashtirilib, umumiy ulushning 2,7 %ini tashkil etdi. Sog`liqni saqlash sohasiga 73,6 mlrd so`m , bu esa «Obod qishloq» va «Obod mahalla» davlat loyihalarining bajarilishi bilan bevosita bog`liq. Jami investitsiyaning 14,2 foizi yani, 676,9 mlrd.so`mi uy joy qurilishiga sarflandi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar (jamiga nisbatan, foizda)



Jalb etilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 36,4 foizi elektr energiyasini va gaz yetkazib berish faoliyat turiga to`g`ri keldi va 43,4 foizi tog`-qayta ishlash sanoati faoliyat turiga o`zlashtirildi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2019 yil yanvar-iyun



Joriy davrda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki: Taxiatoş tumanida (13588,9 ming so'm), Mo'ynoq tumanida (16960,7 ming so'm), Qo'ng'iro't tumanida (3526,7 ming so'm)ni tashkil qildi. Jami Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha ushbu ko'rsatkich 2540,3 ming so'mni tashkil etdi.

Ijtimoiy soha ob'ektlari

Kasalxonalar, ambulatoriya-poliklinika, qishloq vrachlik punktlari va boshqa tibbiy muassasalarni qurish va kapital rekonstruksiya qilish uchun 46,9 mlrd. so'm investitsiyalar kiritildi, sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan investitsiyalarning 63,8% tashkil etdi. Ularning 43,2 mlrd. so'mi yangi qurilishga, 3,7 mlrd. so'm esa mavjud tashkilotlarni rekonstruksiya qilishga yo'naltirildi.

Nukus tumanida №-35 sonli qishloq vrachlik punkti bir smenada 50 qatnov quvvatiga ega bolgan yangi poliklinika ishga foydalanishga topshirildi.

Nukus shahridagi ikkita oily ta'lim muassasalari qurilishiga 12,9 mlrd so'm investitsiya o'zlashtirildi.

O'quv jarayonini yanada takomillashtirish bo'yicha chora tadbirlar doirasida, umumta'lim va ixtisoslashtirilgan (maktabgacha ta'lim muassasalari) maktablar qurilishi va rekonstruksiyasiga 36,3 milliard so'm investitsiya o'zlashtirilib jami investitsiyaning 27,8 foizni tashkil etdi. Ulardan 14,0 mlrd.so'mi yangi qurilishga, 22,3 mlrd.so'mi mavjud muassasalarni qaqyta ta'mirlashga sarflandi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish va qayta ta'mirlashga alohida e'tibor qaratilmoqda va bunga hisobot davrida 51,1 mlrd.so'm mablag' ajratilib shundan, 8,9 mlrd so'mi yangidan barpo etishga, 42,2 mlrd so'mi esa mavjud bo'lgan muassasalardi qayta ta'mirlashga sarflandi. Qorao'zak tumanidagi Esimozak MFY dagi 160 o'rinlik muassasa foydalanishga topshirildi Xo'jayli va Chimboy tumanlaridagi 2 ta muassasa qayta ta'mirlanib foydalanishga topshirildi.

Shuningdek qiymati 9 mlrd so'mga ajratilgan musiqa va san'at maktablari binolari qurilishi davom etmoqda.

Shu yili Mo'ynoq tumanida 4,7 mlrd so'mlik ochiq suzish havzasi qurilishi boshlandi.

Hisobot davrida 191,8 km lik suv tarmoqlari otkazildi shundan 82,2 km-i qishloq joylariga to'gri keldi.



oliy o`quv muassasalari uchun - 12,9 mlrd. so`m



umumta`lim va ixtisoslashtirilgan maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari ushun - 87,4 mlrd. so`m



shifoxona, poliklinika, qishloq vrachlik punktlari va boshqa tibbiyot muassasalari ushun - 46,9 mlrd. so`m



***Qoraqalpog'iston Respublikasi
Statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi***

***Nashr uchun mas'ul: Z.Seytimbetova
Telefon: (861) 222-75-91***